

**BADIIY MATNDA ALLYUZIV NOMLAR**  
(ULUG‘BEK HAMDAMNING “YO‘L” ROMANI MISOLIDA)

**Amirova Dildora Karim qizi**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti magistranti

*Annotatsiya.* Ushbu tadqiqotimizda allyuziya hodisasi, shuningdek, allyuziv nom tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning tadqiqi xususida so‘z yuritdik. Badiiy matnning tub mohiyatini anglab yetishda allyuziv nomlarning qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida to‘xtalib o‘tdik. Allyuziya hodisasining badiiy adabiyotdagi talmeh san‘ati bilan bog‘liq xususiyatlarini izohlab berdik.

*Kalit so‘zlar:* allyuziv nom, badiiy matn, talmeh, allyuziya, adabiy fakt, ijtimoiy-tarixiy fakt, allyuziv denotat, allyuziya ko‘rsatkichi.

Bugungi kunda badiiy matnni tadqiq etishning prinsiplari yana-da rivojlanib boyib bormoqda. Buning natijasida esa badiiy izlanish va tahlillarga e‘tibor kuchayib yangidan yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Allyuziya hodisasi ham shular jumlasidandir.

Allyuziya atamasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Allyuziya (lot. *allusio* – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she‘riyatida keng qo‘llanilgan talmeh san‘atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya‘ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq”.<sup>1</sup> Allyuziya hodisasining bosh xususiyati ijtimoiy-faktlarga ham ishora qilishi mumkinligidadir. Zamonaviy she‘riyatda talmeh san‘atining qo‘llanib-qo‘llanilmaganligi tahlil qilinmaydi, biroq badiiy matnni tahlil qilishda allyuziya hodisasining badiiy-estetik ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda.

Shuningdek, allyuziya hodisasi bilan bog‘liq bir qancha lug‘aviy birliklar lingvistik soha va yo‘nalishlarga kirib kelishi zamonaviy tilshunoslik terminlarining ham boyishiga xizmat qilmoqda. Masalan, *allyuziv antroponim*, *allyuziv kosmonim*, *allyuziv matn*, *allyuziv nom*, *allyuziv toponim*, *allyuziv zoonim*, *allyuziya denotati*, *allyuziya ko‘rsatkichi*, *allyuziya manbasi*<sup>2</sup> va boshqalar.

<sup>1</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adaiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2013. – B 27.

<sup>2</sup> Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati /D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B 9-11.

Badiiy matnlarda onomastik birliklarning allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi yozuvchi maqsadining yana-da aniq tarzda ifodalanishiga yordam beradi. D.Xudoyberganova allyuziv nomni shunday ta’riflaydi: *“Allyuziv nom – allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita”*.<sup>3</sup> Shuni ta’kidlash lozimki, allyuziv nomlarga duch kelar ekanmiz, ular bilan bog‘liq ma’lumotlar ko‘z oldimizda qaytadan jonlanadi.

Ijodkorning muayyan allyuziv nomga murojaat qilishi uning dunyoqarashi, nomlar haqidagi bilimi bilan bog‘liq bo‘ladi<sup>4</sup>. Masalan, Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romanida bir qator allyuziv nomlarni kuzatishimiz mumkin. Mazkur roman yozuvchi tilidan hikoya qilingan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hikoya-voqealar ketma-ketligidan iborat bo‘lib, ularning har biriga alohida sarlavha qo‘yilgan. Sarlavhalarning o‘zidayoq allyuziv nomlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, **“Zardusht bobo”**, **“Devor ortidagi olam yoki budda”**, **“Muso alayhissalom bitigi”**, **“Iso alayhissalom bitigi”**, **“Muhammad alayhissalom bitigi”**. Yozuvchi nomi zikr etilgan hikoyalarda asosiy e’tiborni ular haqida ma’lumot berishga emas, uning tub mohiyatiga qaratadi; ularga boshqalardan o‘zgacha ko‘z bilan boqadi.

**“Zardusht bobo”** hikoyasini tahlilga tortishdan oldin, sarlavha nomiga e’tibor qaratsak. Yozuvchi tarafidan bejizga bobo so‘zi qo‘llanilmagan. Ota-bobolarimiz islom dinidan oldin zardushtiylik diniga sig‘inganlar. Qolaversa, hozirgi kunda ham bu dinning ba’zi element-xususiyatlari saqlanib qolgan. Zardusht haqidagi hikoya ham YO‘Lning boshida edi. Zardushtiylikning yovuzlikka qarshi kurash, ezgulik tarafdori bo‘lish aqidalari bilan sug‘orilganligiga ishora qilinadi.

... *Bas, u yigitlik chog‘idanoq o‘rtaga chiqib, “Axuramazda bizning Tangrimiz, anavi quyosh, muqaddas olov biz uchun hayot ramzi”, – dedi. Dunyodan, hayotimizdan, yuraklarimizdan yovuzlikni quvib solamiz, uning o‘rnini faqat va faqat yaxshilik egallaydi deb avvalo o‘zi ishondi, so‘ng gaplariga o‘zgalarni ishontirdi. Zardusht edi uning ismi. Yana uni uzoqdan Oltin yulduz ham deb atashardi*<sup>5</sup>.

Zardushtiylik dinidagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga ishora qilinadi. Adib ushbu tamoyilni so‘zma-so‘z keltirishdan ko‘ra, uning mazmunini saqlagan holda ta’riflashni joiz ko‘radi va bu orqali *allyuziya denotati*<sup>6</sup> yuzuga keladi:

<sup>3</sup> O‘sha asar / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B 9.

<sup>4</sup> Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B 53.

<sup>5</sup> Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan (Roman va hikoyalar) / “Yo‘l” romani. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – B 65. (Keyingi misollarda kitob sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi)

<sup>6</sup> Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B 10.

*Zardusht odamlarning hammasi bir, uning qaysi tabaqaga mansubligi-yu boy yo kambag‘alligi hech nimani bildirmaydi, insonning dilidagi o‘yi, tilidagi so‘zi va qo‘lidagi ishi ezgu va bir bo‘lishi kerak (65-bet).*

Zardushtiylik dinining insonlarni ahillikka da‘vat etishi ham ta‘kidlab o‘tiladi:

*Zardusht yurgan joylarda tartib o‘rnatila boshlagani mening e‘tiborimni tortdi. Ha-ha, u yurgan yo‘llarda, u barobar bo‘lgan qavmlar orasida zulm va adolatsizlikka chek qo‘yilib, odamlar ahil va totuv yashay boshladilar (65-bet).*

Zardushtiylik asosini ezgulik, yaxshilik kabi g‘oyalar tashkil etganligi, biroq qanchadan qancha qabilalarga uning hali-hanuz yetib bormaganligi izohlab o‘tiladi:

*Ammo yo‘ldan chiqib uloqib ketgan xaloyiqning ham son-sanog‘i yo‘q edi. U kunchiqish tomondan g‘urubga qadar yoyilgan, bas, bu sarhadlararo Zardusht boboning qadami yetmagan qabilalar to‘lib-toshib yotardi (65-bet).*

Zardusht haqida o‘rin olgan mo‘jazgina hikoya zamirida butun dinning tamoyil-u aqidalari sodda va ravon til bilan ochib berilgan. Faqatgina o‘quvchi-kitobxon tarafidan xulosa chiqarishi uchun eng lozim, deb topilgan joylari yozuvchi tilidan hikoya qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, allyuziv nomlar qaysi ijodkor asarida qo‘llanilmasin uning badiiy-estetik salohiyati va poetik mahoratidan dalolat beradi. Allyuziv nomlar vositasida xoh katta, xoh kichik axborot ixcham ko‘rinish bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik uchun ma‘lum bo‘lgan axborotlarning qaytadan kiritilishiga hojat qolmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
2. Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan (Roman va hikoyalar) / “Yo‘l” romani. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
3. Injil. – Stokgolm, 1993. – B 256.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adaiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024.